| Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari .....                                     | 689 |
| <b>Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Xusanov Faxriddin Jamoliddin o'g'li</b>                                                                |     |
| Tashqi mehnat migratsiyasi.....                                                                                                         | 694 |
| <b>O. N. Djurayev</b>                                                                                                                   |     |
| Raqamli iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini baholash .....                                       | 699 |
| <b>Otaboyeva Dildora</b>                                                                                                                |     |
| Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari sifatini oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi .....                          | 705 |
| <b>Raimov Xurshid Muxtorovich</b>                                                                                                       |     |
| Tijorat banklarida moliyaviy injiniringni qo'llash istiqbollari .....                                                                   | 711 |
| <b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>                                                                                              |     |
| O'zbekiston Respublikasi moliya bozorida tijorat banklari faoliyati: muammo va yechimlar .....                                          | 716 |
| <b>Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboevich, Jumaev Islombek Akram o'g'li</b>                                                                  |     |
| Agrar ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari .....                                                                 | 723 |
| <b>Boltayev Nurali Shiramatovich, Beglayev Uchqun Xurramovich, Abdiyev Izzat Risqiboyevich</b>                                          |     |
| O'zini o'zi band qilgan shaxslardan olinadigan soliqlarni takomillashtirish orqali<br>yashirin iqtisodiyotni jilovlash masalalari ..... | 731 |
| <b>Davranov Iskandar Jumayevich</b>                                                                                                     |     |
| Iqtisodiy konsentratsiyalarni tartibga solish va nazorat qilishni takomillashtirish.....                                                | 738 |
| <b>Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| Role of Private and Public Kindergartens in Early Childhood Development .....                                                           | 744 |
| <b>Makhmudova Munisakhon Abbos qizi</b>                                                                                                 |     |
| "Yashil" enegriya quvvatlarini barpo etish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash asosi sifatida.....                                       | 749 |
| <b>Muminova Elnoraxon Abduraimovna, Umarova Dilnoza Oybek qizi</b>                                                                      |     |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari .....                                                | 754 |
| <b>Qlichev Baxtiyor Pardayevich</b>                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                                      |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Korxonada likvidlik riskini minimallashtirish orqali uning moliyaviy barqarorligini saqlab qolish .....                                              | 759 |
| <b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>                                                                                                                  |     |
| Развитие международных торгово-экономических связей Республики Узбекистан .....                                                                      | 766 |
| <b>Ким Татьяна Валерьевна, Гофуржонов Шахрибону Бахромжон кизи</b>                                                                                   |     |
| Kapital qurilishni boshqarish samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari .....                                                                  | 774 |
| <b>A. Bektemirov, M. U. Sarimsoqov</b>                                                                                                               |     |
| O'zbekiston mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish.....                                                                   | 780 |
| <b>Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Bahromov Shahzod Fazliddinovich</b>                                                                       |     |
| Роль имиджа в улучшении инвестиционной привлекательности высших учебных заведений.....                                                               | 787 |
| <b>Жанзаков Бекзот, Жонузиков Мирзабек</b>                                                                                                           |     |
| Innovatsion kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha xorij tajribasi va uni mamlakat iqtisodiyotida qo'llash imkoniyati.....                | 795 |
| <b>Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Eshqulova Dilorom Abduravupovna</b>                                                                                 |     |
| Перспективы развития банковского сектора в Узбекистане для иностранных туристов .....                                                                | 802 |
| <b>Муминов Шахзод Низомиддинович, Каримова Азиза Махомадризовна</b>                                                                                  |     |
| Innovatsion faoliyat moliyaviy modellari va mexanizmlarini rivojlantirishning konseptual asoslari .....                                              | 806 |
| <b>Ruzibayeva Nargiza Xakimovna</b>                                                                                                                  |     |
| Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda samarali foydalanish yo'llari ..... | 814 |
| <b>Ishniyazov Baxrom Normamatovich</b>                                                                                                               |     |
| Turistik xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari va marketing tadqiqotlari.....                                                                      | 819 |
| <b>Berdiqulova Iroda Rayimqulovna</b>                                                                                                                |     |
| Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi: asosiy muammolar va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari .....                                                 | 823 |
| <b>Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich</b>                                                                                                         |     |
| Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitlarida kichik biznes sektori rivojlanishining imkoniyatlari.....                                           | 832 |
| <b>Botirova R. A., Sirojiddinov I. Q.</b>                                                                                                            |     |
| Kriptoalyuta va blokcheyn tadqiqotlari: tendensiyalar va istiqbollar .....                                                                           | 835 |
| <b>Berdiqulov Jurabek</b>                                                                                                                            |     |
| Bank risklarni monitoring qilish tizimini takomillashtirish .....                                                                                    | 837 |
| <b>Hamroyev Sherzod Axtamovich</b>                                                                                                                   |     |
| O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ko'p qavatli "yashil" fermer xo'jaliklarini tashkil etishning ahamiyati .....        | 843 |
| <b>Turdimuratova Aziza Alisherovna</b>                                                                                                               |     |
| Surxondaryo viloyatining mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari va uni arima modeli asosida prognozlash.....                                | 846 |
| <b>Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi</b>                                                                                                        |     |
| Qishloq xo'jaligi tarmog'ining mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va undagi tarkibiy o'zgarishlarni statistik baholash.....                             | 856 |
| <b>Zakirova Umida Maxamadaminovna</b>                                                                                                                |     |
| O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati .....                                                       | 863 |
| <b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b>                                                                                                                |     |
| Turizm bozorini rivojlantirishda mehnat bozorining tutgan o'rni va ahamiyati .....                                                                   | 872 |
| <b>Berdiqulova Iroda Rayimqulovna, Berdikulov Jurabek</b>                                                                                            |     |
| Проблемы расчета определения и планирования прибыли предприятий в условиях модернизации экономики .....                                              | 876 |
| <b>Алиева С.С.</b>                                                                                                                                   |     |



# O'ZBEKISTON MEHNAT BOZORIDA YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIK DARAJASINI OSHIRISH



**Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich**  
O'zMU, iqtisodiyot fanlari doktori, professor



**Bahromov Shahzod Fazliddinovich**  
O'zMU 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistondagi globallashtirish sharoitida ish bilan band bo'lmagan yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha yangi mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o'rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadida mamlakatimizda islohotlar va chora-tadbirlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** bandlik, yoshlar, mehnat bozori, mexanizm, tadbirkorlik, ishsizlik, soliq, kredit, infratuzilma, emigrant, iqtisodiy sektor, YaIM, tendensiya, ta'lim.

**Abstract:** In this article, in order to introduce new mechanisms for ensuring employment for unemployed youth in the context of globalization in Uzbekistan, creating favorable conditions for attracting low-income people to work, as well as further stimulating the activities of business entities that created new jobs, reforms and measures in our country, events are analyzed.

**Key words:** employment, youth, labor market, mechanism, entrepreneurship, unemployment, tax, credit, infrastructure, emigrant, economic sector, GDP, trend, education.

**Аннотация:** В данной статье в целях внедрения новых механизмов обеспечения занятости безработной молодежи в условиях глобализации в Узбекистане, создания благоприятных условий для привлечения малообеспеченного населения к работе, а также дальнейшего стимулирования деятельности субъектов предпринимательства, создавших новые рабочие места, реформы и меры в нашей стране - анализируются события.

**Ключевые слова:** занятость, молодежь, рынок труда, механизм, предпринимательство, безработица, налог, кредит, инфраструктура, эмигрант, сектор экономики, ВВП, тренд, образование.

## KIRISH

Bugungi kunda Respublikada olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar davlatning har bir hududida o'zining ko'zga ko'rinarli ijobiy samarasini ko'rsatmoqda. Inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanish sohasida qanday dasturlar belgilanganligiga bog'liq.

Sitatistika ma'lumotlariga qaraganda, dunyodagi 1,2 milliard yoshlarning deyarli 88 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarda istiqomat qiladi. Dunyo miqyosida yoshlar ishlaydigan kambag'allarning taxminan 24 foizini tashkil qiladi va bu dinamika, ayniqsa, Afrikada yaqqol namoyon bo'ladi, u yerda yoshlarning 70 foizdan ortig'i



kuniga 2 AQSh dollari yoki undan kam daromad bilan kun kechiradi. Dunyo yoshlari sonining o'sishi kutilayotgan bo'lsa-da, yosh ayollar va erkaklar uchun bandlik va tadbirkorlik imkoniyatlari cheklanganligicha qolmoqda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan turg'un qishloq joylarida yashovchilar uchun ishsizlik darajasi yuqoriligi qolmoqda <sup>[1]</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-153-son qarori qabul qilindi <sup>[2]</sup>.

Qarorga ko'ra, tuman hokimliklari zaxirasidagi 60 ming gektar yer maydoni elektron onlayn auksion savdolariga qo'yilib, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun yoshlarga ijaraga beriladi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan sotishgacha bo'lgan zanjirni qamrab oluvchi yangi tizim joriy etiladi.

60 ming gektar yer maydonini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali "mahalla yettligi"ning tavsiyasi bilan shakllantiriladigan ro'yxatga kiritilgan yoshlar (talabgorlar) o'rtasida o'tkaziladi va yer maydonlarini ijaraga berish bo'yicha elektron onlayn auksion savdolari g'oliblariga yer uchastkasi narxini 10 yil muddatga teng ulushlarda foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi hamda zakalat puli BHMning 1 baravari (340 ming so'm) miqdorida belgilanishi ko'zda tutilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlar mehnat bozorining muhim qismini tashkil qilish, ularning layoqatli, bilimli hamda malakali bo'lishi mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalar:

- Yoshlarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish dasturlarini takomillashtirish;
- O'zbekistonda yoshlarning ishsizlik darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar va omillarni aniqlash;
- Mehnat bozorida yoshlar bandligini tashkil qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularga kichik biznesni rivojlantirishda yordam ko'rsatish.

## MAVZU YUZASIDAN ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat bozori asoslarining, ishlab chiqarish munosabatlarining turli bosqichlarida rivojlanishi va transformatsiyasi, uning ishlash qonuniyatlari klassik olimlar A.Smit, D.Rikardo, J.B.Sey va boshqalarning asarlarida tahlil qilingan <sup>[3; 4; 5]</sup>.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha uslubiy qoidalarni ishlab chiqishgan MDH davlatlari olimlari L.N.Sosnovskaya, A.Kashapov, L.A.Kostin, B.D.Breev va boshqa zamonaviy olimlarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan <sup>[6; 7; 8; 9]</sup>.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda yoshlar mehnat bozorini takomillashtirish, hududlar kesimida ishsizlik darajasini pasaytirish kabi ko'plab masalalar olimlarning diqqat markazidagi mavzular hisoblanadi. Respublika yoshlar bandligini oshirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlar orasida N.U.Arabov, B.X.Umurzakov va Z.Y.Xudoyberdievlarni qayd etish mumkin <sup>[10; 11; 12]</sup>.

Mazkur olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlari mahalliy ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi, hamda mehnat va bandlik sohasida metodologiyaning shakllanishiga yordam berdi. Shu bilan birga, ushbu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko'plab asarlari mavjudligiga qaramay, yoshlar mehnat bozorini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish masalalari maxsus tadqiqotlarni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ma'lumotlarni tizimli tahlil, analiz guruhlash, taqqoslash hamda ekspert baholash usullaridan unumli foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJA

Hozirgi davrga kelib, inson salohiyatining raqobatbardoshligini oshirish ko'p jihatdan yoshlar mehnatidan foydalanishga bog'liq bo'lib qolmoqda. Hozirgi yoshlar ko'p jihatdan jamiyatlardagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsata olishi, shu bilan bir qatorda, yoshlar ishga joylashishda katta qiyinchiliklarga uchrayotgan ijtimoiy nochor toifalardan biri hisoblanishiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun yoshlarning drayverlik imkoniyatlarini amalga oshirishga munosib shart-sharoitlar yaratilishi bilan bir qatorda mehnat bozorlarida yosh ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish, mehnat resurslaridan to'liq va samarali foydalanish shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'qitish hamda malaka oshirish kabi yo'nalishlarda keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Respublikada 29 yoshgacha bo'lgan aholi soni 18 millionni tashkil qiladi. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo (YeMO) mintaqasidagi boshqa davlatlar bilan taqqoslaganda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Mamlakatda



mehnatga layoqatli aholi soni yaqin o'n yilda 12 foizga o'sishi, 2045-yilga borib eng yuqori darajaga yetishi kutilmoqda.

Shuningdek, "O'zbekistonda 15–24 yoshlilar orasida "umidsizlikka tushgan" yoshlarning ulushi 5%ga yetadi, 25-29 yoshli yoshlar orasida esa 4%gacha kamayadi. YeMO mintaqasidagi aksariyat qo'shni mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2,5%dan kamroq. Bunga asosiy sabab esa, qishloq joylarda ish o'rinlarining yetishmasligi va ishchi kuchiga talabning sustligi, norasmiy bandlikning yuqori darajasi yoshlar o'rtasida haq to'lanadigan mehnat bilan band bo'lishda asosiy to'siq hisoblanadi" [13].

So'nggi yillarda Respublikada yoshlar bandligiga juda katta e'tibor berilmoqda va bandlar soni oshmoqda. 2023-yilda mehnat organlari tomonidan hududlar kesimida ishsiz yoshlarni ishga joylash, kasbga o'qitish, jamoat ishiga jalb etish, ishsizlik nafaqasini tayinlash va yoshlarga subsidiyalar ajratish kabi yo'nalishlarda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilgan (1-jadval).


1-jadval: 2023-yilda mehnat organlari tomonidan yoshlarni ishga joylashtirish holati (ming kishi) [15]

| №  | Hududlar nomi                 | Ko'rsatilgan xizmatlar | Ishga joylashganlar | Kasbga o'qitilganlar | Jamoat ishiga jalb etilganlar | Ishsizlik nafaqasi tayinlanganlar soni | Yoshlarga ajratilgan subsidiyalar |
|----|-------------------------------|------------------------|---------------------|----------------------|-------------------------------|----------------------------------------|-----------------------------------|
| 1  | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 21490                  | 11445               | 6598                 | 1584                          | 1240                                   | 623                               |
| 2  | Andijon                       | 15239                  | 7559                | 3769                 | 1718                          | 673                                    | 1520                              |
| 3  | Buxoro                        | 19509                  | 11318               | 3994                 | 1805                          | 1660                                   | 732                               |
| 4  | Jizzax                        | 13430                  | 6273                | 4305                 | 1561                          | 250                                    | 1041                              |
| 5  | Qashqadaryo                   | 21409                  | 10869               | 6073                 | 1862                          | 1473                                   | 1132                              |
| 6  | Navoiy                        | 8902                   | 4892                | 2353                 | 777                           | 682                                    | 198                               |
| 7  | Namangan                      | 19134                  | 10820               | 5315                 | 1560                          | 522                                    | 917                               |
| 8  | Samarqand                     | 21341                  | 10876               | 5276                 | 1637                          | 1432                                   | 2120                              |
| 9  | Surxondaryo                   | 17342                  | 6796                | 6215                 | 2098                          | 690                                    | 1543                              |
| 10 | Sirdaryo                      | 11599                  | 5507                | 2666                 | 1308                          | 1604                                   | 514                               |
| 11 | Toshkent v.                   | 20433                  | 10848               | 5547                 | 1521                          | 2084                                   | 433                               |
| 12 | Farg'ona                      | 17153                  | 9056                | 4497                 | 2573                          | 679                                    | 348                               |
| 13 | Xorazm                        | 17363                  | 8716                | 5875                 | 1583                          | 896                                    | 293                               |
| 14 | Toshkent sh.                  | 14678                  | 8885                | 3907                 | 576                           | 62                                     | 1248                              |
| 15 | <b>Jami</b>                   | <b>239022</b>          | <b>123860</b>       | <b>66390</b>         | <b>22163</b>                  | <b>13947</b>                           | <b>12662</b>                      |

Respublikada 2023-yilda mehnat organlari tomonidan yoshlarga ko'rsatilgan xizmatlar samaradorligi sezilarli darajada yaxshilangan. Jami 239,022 ming yosh turli xizmatlardan foydalanib, ularning 123,860 ming nafari (51,8%) ishga joylashtirilgan. Shu jumladan, 66,390 ming yosh (27,8%) kasbga o'qitilgan, 22,163 ming nafari (9,3%) jamoat ishlariga jalb etilgan, 13,947 ming yoshga (5,8%) ishsizlik nafaqasi tayinlangan va 12,662 ming yosh (5,3%) esa turli subsidiyalar bilan ta'minlangan.

2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasida umumta'lim maktablari bitiruvchilarining kasbiy mahoratini oshirishga ko'maklashishning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan tizimini tashkil etish muhim jihat sifatida belgilangan. Strategiyaning asosiy maqsadi hukumatning yoshlar masalalariga yondashuvini takomillashtirishdan iborat va yoshlarga arzon va sifatli ta'lim berish, shuningdek, ularning bandligi uchun shart-sharoit yaratish, mehnatga integratsiyalashuvi uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash kabi asosiy ustuvor yo'nalishlardan iborat. Davlatning sa'y-harakatlari mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirishdek asosiy maqsadni qo'ygan holda, yoshlarning ko'nikma va malakaga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan.

15-24 yoshli yoshlarning ish bilan ta'minlanishi har qanday hududda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik va taraqqiyotning muhim ko'rsatkichidir. Yoshlar ishsizligining uzoq muddatli yoki yuqori ko'rsatkichlari ijtimoiy tartibsizliklar, ish kuchining kechikishi va uzoq muddatli martaba muammolari kabi keng qamrovli salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ushbu tadqiqot 2004-yildan 2023-yilgacha bo'lgan 19 yillik davrda ma'lum O'zbekiston hududida 15-24 yoshli ishsizlik darajasi tendensiyalarini o'rganadi (1-rasm).



1-rasm: 15-24-yoshlar orasida ishsizlik darajasi <sup>[14]</sup>

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Respublika hududida 2004-yilda ishsizlik darajasi 17.09 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2007-yilga kelib bu ko'rsatkich 10.24 %ga pastlagan. 2010-yil 10.62%ga, 2015-yil 11.57 %ga, 2020-yil 12.08 %ga, 2023-yil esa 10.56%ga yetgan. Yillar davomida qaraydigan bo'lsak, so'ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar va imkoniyat natijalarida sezilarli darajada kamaygan.

Yoshlar ishsizligi darajasi hozirgi vaqtda ishsiz lekin ish izlayotgan 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan iqtisodiy faol aholi ulushini bildiradi. Yoshlar orasidagi ishsizlik darajasi uzoq muddatli ishsizlar yoki kunduzgi talabalar kabi iqtisodiy faol bo'lmagan shaxslarni o'z ichiga olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'ZBEKISTON-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Farmonda ko'plab ustuvor maqsadlar qo'yilgan:

- "Yoshlar daftari" jamg'armasi mablag'lari yoshlarni chet tillari va kasb-hunarga o'qitish maqsadlariga yo'naltiriladi.
- yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha "Ustoz" maxsus platformasi ishga tushiriladi va dastlabki bosqichda mazkur platforma orqali 250 ming nafar yoshlar qamrab olinadi.
- yosh xotin-qizlarni tadbirkorlik, marketing, grafik-dizayn kabi zamonaviy kasblarga o'rgatish uchun "Qizlar akademiyasi" platformasi ishga tushiriladi va bu orqali yosh xotin-qizlar uchun turli tanlov, loyihalar, o'quv oromgozlari, stajirovkalar tashkil etiladi <sup>[16]</sup>.

Shuningdek, iste'dodli va iqtidorli yoshlar "Yoshlar balansi" asosida vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat ishtirokidagi korxona va tashkilotlar hamda oliy ta'lim tashkilotlari rahbarlariga birlashtiriladi va mazkur rahbarlar har oyda kamida bir marotaba o'zlariga birlashtirilgan yoshlar bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish va salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni talab yuqori bo'lgan kasb-hunarga o'qitish orqali bandligini ta'minlash, hayotda o'z o'rnini topishi, shuningdek, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga har tomonlama ko'maklashadi.

Mazkur dasturda belgilangan tadbirlar yoshlarni iqtisodiy va ijtimoiy faollashtirishga, ularni talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitishga, yosh xotin-qizlarning tadbirkorlik va marketing sohalaridagi malakalarini oshirishga, iste'dodli yoshlarni idoraviy rahbarlarga "Yoshlar balansi" asosida birlashtirib, ularning salohiyatini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, "Yoshlar daftari" jamg'armasining mablag'lari yoshlarni chet tillari va kasb-hunarlarini o'rganishlariga yo'naltirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu chora-tadbirlar yosh avlodni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va malakalarini oshirish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish orqali mamlakatimizning 2030-yilgacha bo'lgan istiqboldagi barqaror rivojlanishiga poydevor bo'ladi.



Yoshlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning faol ishtiroki iqtisodiyot farovonligini ta'minlash va barqaror rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Respublika yoshlarga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy iqtisodiy ko'rsatkich tahlil qilinib, ularning bandlik istiqbollari, iqtisodiy o'sish, investitsiya imkoniyatlari, ta'lim darajasi va emigratsiya shakllariga oydinlik kiritadi (2-jadval).

2-jadval: O'zbekistonda yoshlar mehnat bozorining prognoz ko'rsatkichlari 2022–2026-yillarda, %<sup>[17]</sup>

| Yillar | Iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlar ulushi | Aholi jon boshiga YalMning o'sish sur'ati | Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish darajasi | Oliy ma'lumotli yoshlar foizi | Jami chet elga ketganlar orasida yoshlarning ulushi |
|--------|------------------------------------------------------------|-------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------|-------------------------------|-----------------------------------------------------|
| 2022   | 31.055                                                     | 101.929                                   | 121.404                                                                     | 8.373                         | 21.285                                              |
| 2023   | 31.094                                                     | 101.581                                   | 122.925                                                                     | 8.414                         | 19.712                                              |
| 2024   | 31.133                                                     | 101.233                                   | 124.447                                                                     | 8.455                         | 18.138                                              |
| 2025   | 31.173                                                     | 100.885                                   | 125.969                                                                     | 8.495                         | 16.565                                              |
| 2026   | 31.212                                                     | 100.536                                   | 127.491                                                                     | 8.536                         | 14.991                                              |

Iqtisodiy faol aholi tarkibida band bo'lgan yoshlarning ulushi bosqichma-bosqich o'sib bormoqda va 2022-yildagi 31,055%dan 2026-yilda 31,212%gacha ko'tarilishi prognoz qilinmoqda hamda ushbu tendensiya yoshlarning mehnatga integratsiyalashuvi kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning yoshlarining ilg'or ta'lim olishlari uchun keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. 2022-yildan 2026-yilgacha ushbu ko'rsatkich 8,373% dan 8,536% gacha ko'tarilib, izchil o'sish tendensiyasini namoyish etadi. Ushbu yuksalish hukumat va ilmiy muassasalarning oliy ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va mamlakat yoshlari o'rtasida ilmiy izlanishlarni rivojlantirish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarini taklif qiladi. Emigrantlarning umumiy sonidagi yoshlar ulushini qamrab oluvchi ushbu ko'rsatkich 2022-yildan 2026-yilgacha sezilarli pasayish trektoriyasini ko'rsatadi va 21,285% dan 14,991% gacha kamayishi prognoz qilinmoqda. Ushbu ko'rsatkichning kuzatilgan pasayishi turli omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, jumladan, ichki ish bilan ta'minlash istiqbollari, qulay siyosat yoki yosh avlodning mamlakatdagi kelajagiga nisbatan o'zgaruvchan qarashlar. Shunga qaramay, asosiy drayverlarni har tomonlama tahlil qilish oqilona strategiya va siyosatni shakllantirish uchun foydali bo'ladi.

2023-yil 11-aprel kuni O'zbekiston Prezidenti rahbarligida "Yoshlar siyosati sohasidagi ishlar natijadorligini oshirish hamda ular bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.


Unda yoshlar bandligini ta'minlash borasida tegishli vazirlik va idoralar tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib tasdiqlandi. Ushbu rejada quyidagi asosiy yo'nalishlar belgilangan:

1. Ish bilan ta'minlash orqali bandlikka erishish. Bu borada bitiruvchilarni mavjud bo'sh ish o'rinlariga joylashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, ularning kadrlar ehtiyojini qondirish ko'zda tutilgan.
2. Kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlari. Bitiruvchilarni kasb-hunarga o'qitish, ularning tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Bu borada maxsus o'quv kurslari va treninglar tashkil etiladi.
3. Jamoat ishlari va subsidiyalar bilan ta'minlash. Bitiruvchilarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish, shuningdek, subsidiyalar ajratish orqali ularning bandligiga ko'maklashish rejalashtirilgan.
4. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Bitiruvchilarni tadbirkorlikka undash, ularni amaliy yordam bilan ta'minlash, shuningdek, moliyaviy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari nazarda tutilgan.
5. Hunarmandchilik sohasida bandlikni oshirish. "Usta-shogird" an'analari qayta tiklash asosida bitiruvchilarni hunarmandlarga birlashtirish loyihasi amalga oshiriladi.
6. Qishloq xo'jaligida band qilish. Bitiruvchilarga qishloq xo'jaligi yerlari ajratish orqali ularning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan.
7. O'zini-o'zi band qilish imkoniyatlarini yaratish. Bitiruvchilarni mustaqil ravishda faoliyat yuritishga undash hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish borasida chora-tadbirlar belgilangan.



Ushbu chora-tadbirlar yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlash, ularning bandligini oshirish va shu orqali iqtisodiy farovonlikka erishishga xizmat qiladi.

2023-yilda ishsiz yoshlar va ta'lim muassasalarini bitirayotgan yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda ishga joylashtirish bo'yicha "Yoshlar bandligi dasturlari" ishlab chiqildi. Bu dasturda asosiy urg'u oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, kasb-hunar ta'lim muassasalari bitiruvchilari, umumiy o'rta-ta'lim maktablari bitiruvchilari hamda ishsiz yoshlarga qaratilgan.



2-rasm: Ishsiz yoshlar va bitiruvchilar bandligini ta'minlash yo'nalishlari <sup>[18]</sup>

Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishchi kuchining salmoqli qismi, taxminan 148 200 nafari rasmiy bandlikka yo'naltirilgan. Bundan tashqari, 39 834 kishini tashkil etuvchi muhim segment kasbiy ta'lim bilan shug'ullanadi, bu esa ishchi kuchidagi malaka bo'shliqlarini bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlardan dalolat beradi. Vaqtinchalik ish bilan ta'minlash imkoniyatlari katta ishchi kuchini o'z ichiga oladi, bunday tadbirlarda 17 324 kishi ishtirok etadi. Tadbirkorlik bo'yicha ta'lim dasturlari 19 970 nafar ishtirokchini o'ziga jalb etib, aholi o'rtasida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga intilayotganini ta'kidlaydi.

Bundan tashqari, har bir tadbirkorni qo'llab-quvvatlash tamoyilidan kelib chiqqan holda, yoshlarni tadbirkorlikka integratsiyalashga qaratilgan tashabbuslarga 20 ming 417 nafar jismoniy shaxs jalb etilgan. Xuddi shunday, "Ustoz-shogird" paradigmasi asosidagi ustozlik dasturlari 10 935 nafar hunarmandni jalb etib, bilimlarni uzatish va malaka oshirishga yordam beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda yoshlar o'rtasidagi bandlik muammosini hal qilish uchun ko'p qirrali va uzoq muddatli yondashuvlar talab etiladi. Bu jarayon quyidagi choralarni o'z ichiga oladi:

- Ta'lim tizimida islohotlar o'tkazish, yoshlarga soha bo'yicha zarur ko'nikmalar va bilimlarni o'rgatish, turli sohalarda sertifikat dasturlarini rivojlantirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- Kasb-hunar ta'limi va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish kurslarini tashkil etish, yoshlarga turli sohalarda ko'nikmalar olish va ularni amaliyotga tadbiriq etish imkoniyatini beruvchi dasturlarni joriy etish;
- Yoshlarni tadbirkorlik qilishga rag'batlantirish uchun subsidiyalar ajratish, startaplar uchun moliyaviy yordam va reklama qilishni ta'minlash;
- Sarmoya kiritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlar uchun innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ish bilan bog'liq vaqtlarni osonlashtirish, shuningdek, ularni tadbirkorlik va sarmoyadorlik sohasida rivojlantirishga rag'batlantirish.

Bunday ko'p qirrali yondashuvlar davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorligini talab etadi. Yoshlarga sifatli ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlari yaratish orqali ushbu muammoni bartaraf etish mumkin. Natijada, yoshlarning o'ziga ishonchi mustahkamlanadi, ular jamiyatning faol a'zolariga aylanadi va iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Youth employment | Decent Rural Employment | Food and Agriculture Organization of the United Nations (fao.org)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-apreldagi PQ-153-son "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/6867721>
3. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. Книги 1-3. – М.: Директ-Медиа, 2014. – 442 с.
4. Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. – М.: Издательство АСТ, 2022. – 234 с.
5. Жан-Батист Сэй. Трактат по политической экономии. Фредерик Бастиа. Экономические софизмы. Экономические гармонии. –М.: Дело, 2000. -232 с
6. Сосновская Л.Н. Современная ситуация в области занятости // Вопросы экономики. – 1993. – № 12. – С.57-63.
7. Кашапов А. Рынок труда в России // Экономист. – 1993. – № 3. – С. 58-69;
8. Костин Л.А. Российский рынок труда: вопросы теории, истории, практики.- М.: Экзамен, 2002. – 415 с.
9. Бреев Б.Д. Безработица в современной России [Текст] / Б. Д. Бреев // Народонаселение. – 2003. – № 2.
10. Arabov N.U. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirish. –T.: Fan va texnologiya, 2017. –270 b.
11. Umurzakov B.X. va b. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy xususiyatlari. – T.: "Lesson press", 2017. 188 b.
12. Xudoyberdiyev Z.Ya. va b. Tadbirkorlik va ishga joylashtirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Ilmziyo, 2016.
13. Jahon banki ma'lumotlari <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/15/youth-employment/>
14. Uzbekistan – youth unemployment rate 2004-2023 | Statista
15. Mehnat organlari tomonidan yoshlarni ishga joylashtirish holati [www.data.egov.uz/data/](http://www.data.egov.uz/data/)
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.02.2024 yildagi PF-37-son <https://lex.uz/docs/6811936>
17. Doniyorova F. A Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Toshkent – 2023
18. "Yoshlar bandligi dasturlari" <https://mehnat.uz/oz/news/yoshlar-bandligi-dasturlari>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.